

GLOBALLASHUV VA GLOBAL MAFKURA TUSHUNCHASI

Irgashev Toxir Anvarovich

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi*

Ziyavitdinov Zafar Zoirovich

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada Globallashuvning salbiy jihati, kamchiligi uning ayrim holatlardagi ma’naviyatsizligida namoyon bo‘layotganligi, moddiylashgan tor dunyoqarash, qadriyatlarni noto‘g‘ri tushunish, irodaning mutlaq egotsentrizm shaklidagi ko‘rinishi ushbu dunyoning asosiy tamoyiliga aylanib borayotganligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: ratsional, globallashuv, jamiyatshunos olimlar, iqtisod, siyosat, huquq, texnika, texnologiya, mafkuraviy immunitet.

КОНЦЕПЦИЯ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ГЛОБАЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ АННОТАЦИЯ

Иргашев Тохир Анварович

Преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Зиявитдинов Зафар Зоирович

Преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

В статье сообщается, что негативная сторона глобализации, её недостатки проявляются в ее аморальности в ряде случаев, материализованном узком мировоззрении, непонимании ценностей, проявлении воли в форме абсолютного эгоцентризма становится главным принципом этого мира.

Ключевые слова: рационализация, глобализация, социология, экономика, политика, право, техника, технология, идеологический иммунитет.

THE CONCEPT OF GLOBALIZATION AND GLOBAL IDEOLOGY ANNOTATION

Irgashev Tahir Anvarovich

Teacher of the Military Training Center
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Ziyavitdinov Zafar Zoirovich

Teacher of the Military Training Center
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

The article informs that the negative side of globalization, its shortcomings are manifested in its immorality in some cases, materialized narrow worldview,

misunderstanding of values, the appearance of the will in the form of absolute egocentrism is becoming the main principle of this world.

Keywords: rationalization, globalization, sociology, economics, politics, law, technique, technology, ideological immunity.

Kirish

Har bir davrning mazmun-mohiyatini, rivojlanish qonuniyatini to‘g‘ri anglab va tushunib etishda eng muhimi davrning mazmunini belgilab beruvchi jarayonlarni, tushunchalarning mazmunini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalarda keng qo‘llanilayotgan globallashuv tushunchasi ko‘plab siyosatchi, faylasuf olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Fransuz faylasufi Rene Dekart “Tushunchalar ma’nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi”,- deganida nechog‘liq haq ekanini davrning o‘zi isbotlab turibdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir sivilizatsiya zamonida yashamoqdamiz.

Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamonida, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamog‘da. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi axborot zamonida er yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ana shu sabab globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatmoqda. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983 yilda “Garvard biznes revyu” jurnalida e’lon qilgan maqolasida qo‘llanilgan edi. U yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. T.Levittning ushbu ta’rifida globallashuv jarayonining iqtisodiy tomonlariga e’tibor berilgan, xolos. Aslida, globallashuv yaxlit jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Rus tadqiqotchisi S.Chestyakova o‘z navbatida globallashuv ta’rifining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Jumladan, u shunday deydi:

-“globallashuv, birinchidan – bu zamonaviy sivilizatsiyaning talablarini qondirishga qaratilgan ob’ektiv va tarixiy jarayonlar xarakteriga ega;

- ikkinchidan, bu – ijtimoiy omillarni takomillashtirish va murakkablashtirish asnosida davlat va millat mustaqilligidan ustuvorlik qiladigan jarayonlar integratsiyasi. Avvalo, u, iqtisod, siyosat, huquq, texnika, texnologiya, axborot va boshqa boshqaruv sohalarini xalqaro organizm strukturasiga ega faoliyatni vujudga keltiradi.

- uchinchidan, ushbu jarayonlar natijasida inson va jamiyat mavjudligini ta'minlashning ijtimoiy asoslari o'zgarishiga olib keladi. Bu o'z navbatida inson va jamiyatning ma'naviy qiyofasini o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi”.

Bundan tashqari, Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi tomonidan globallashtirish jarayoniga berilgan quyidagi uch o'lchov keltirilgan:

- globallashtirish muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashtirish jahonning gomogenlashuvi va universallashtirish jarayoni;
- globallashtirish milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni, ekanligi ham qayd etilgan.

Amerikalik taniqli siyosatchi G.Kissenjer 1999 yil 12 oktyabrda Irlandiyaning Dublin shahridagi Trinit kollejida o'qigan ma'ruzasida shunday degan edi: “Odatda globallashtirish deb ataladigan hodisa, aslini olganda, Qo'shma Shtatlarining hukmronlik rolining shunchaki boshqacha nomlanishidir”. Jahon iqtisodiyoti va siyosatida hakamlarni da'vo qilayotgan AQSh dunyoga egalik qilishning eng nozik va shu bilan birga eng kuchli vositasini ham ishga solmoqda.

Globallashtirish butun jahon iqtisodiyosiy, madaniy integratsiya va unifikatsiyalashuv (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Uning asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlar madaniyatining qo'shilishi va yaqinlashuvidir. Bu ob'ektiv jarayon bo'lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Zero biz A.Toynbi ta'biri bilan aytganda, insoniyat, “umumiy uy”, “umumiy taqdir” va “umumiy tashvish”lar bilan yashashga kirishayotgan⁶, bir so'z bilan aytganda, globallashtirish deb atalayotgan jarayonlar sodir bo'layotgan zamonda yashamoqdamiz.

Globallashtirish tushunchasi haqida mamlakatimiz olim va siyosatchilari ham o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Shu ma'noda, siyosatshunos olim S.Otamurodovning fikricha, “Globallashtirish davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini”. Siyosatshunos olim N.Jo'raev qayd etganidek, “hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko'proq “hozirgi davr global muammolari”ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir”.

Olimlarning fikricha, globallashtirish bir necha ijobiy jihatlarga ega bo'lib, u jumladan:

- mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muammolarni echishga jiddiy asos yaratadi;
- bozorning kengayishi bilan bir qatorda ixtisoslashuv va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga sabab bo'luvchi xalqaro raqobatni vujudga keltiradi;
- keng tarqalishi hamda dunyo miqyosida innovatsiyalarni kiritishga qaratilgan raqobat bosimi natijasida kuzatiladigan ish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Biroq globallashuv o‘zida nafaqat ijobiy natijalarni, balki o‘ziga xos ziddiyatlarni, demak, salbiy natijalarni ham mujassam etgan.

Bugungi kun siyosati mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash, g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatishga qarshi sog‘lom g‘oya bilan javob berish, yoshlarni bunyodkor g‘oyalar bilan mafkuraviy immunitetining mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Globallashuvning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-rivojlanmagan mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan sustroq bo‘lganligi sababli globallashuvdan keladigan afzallik va ustunliklar asosan rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi;

-boy va kambag‘allar o‘rtasidagi masofa yanada chuqurlashishi, adolatsizlik, tengsizlik natijasida ko‘pgina ziddiyatlar paydo bo‘lishi ehtimoli bor;

-ba’zi mamlakatlar iqtisodiyotining nazorati mustaqil hukumatlardan salohiyatliroq bo‘lgan xalqaro tashkilotlarga yoki transmilliy korporatsiyalar qo‘liga o‘tish xavfi mavjud;

- globallashuv natijasida turli yuqumli kasalliklar, giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilikning bir mamlakat hududidan boshqalariga tarqalishi osonlashadi;

- globallashuv milliy davlatchilik poydevorining zaiflashuviga va hatto ayrim davlatlarning yo‘qolib ketishiga, g‘arb pop madaniyatining keng tarqalishiga va aksincha, turli milliy madaniyatlarning yuqolib ketishiga olib kelishi mumkin (olimlarning ta’kidlashicha, g‘arb madaniyati ta’sirida hozirgi paytda dunyoda haftasiga 2 ta til o‘lik tilga aylanmokda).

Shu sababli globallashuv ziddiyatli hodisa bo‘lib, avvalo, ommaviy madaniyat niqobidagi noxush hodisalarning aksilmadaniyatning tarqalish xavfi hamda xalqlarning rang-barang, boy ma’naviy hayotining bir xillashuvi, milliy o‘zlik tuyg‘usining susayishi, egoizm va nigilizm kabi xatarlarning kuchayishi hamda ma’naviyatsizlik muammolarining namoyon bo‘lishida ko‘rishimiz mumkin.

Yot g‘oyalar bugungi kunda o‘zgacha jimjimador, o‘zining go‘zal ko‘rinishlari bilan yoshlarning qalbi va ongini egallashga urunmoqda. Bir qarashda ko‘zimizga ko‘rinmaydi, ammo ayrim yoshlarning fikrlash tarzi o‘zgarib borayotgani sezilmoqda. Ayniqsa, o‘zga davlatning g‘oyalarini ilgari surishlar kun sayin oshkor bo‘lmoqda. Uni ayrim mutaxassislar xorijga chiqayotgan yoshlar olib kirishini, ayrimlari esa internet yoshlarni ongiga salbiy ko‘rsatmoqda demoqda.

Hozir – g‘oyaviy qarama-qarshiliklar g‘oyat murakkablashgan, mafkura poligonlari har qachongidan ham xavfli tus olgan davr. Shunday ekan, ularning o‘ziga xos manfaatlarini ifodalaydigan mafkuraviy ta’sir usullari ham bo‘lishi shubhasiz. Jahon siyosiy xaritasida turfa siyosiy kuchlar, partiyalar, din va diniy oqimlar, mazhablar, guruh va qatlamlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ulardan har biri o‘z manfaatlariga ega. Aynan mana shu manfaatlar o‘zga xalqlar, turli mintaqalar, davlatlarning aholisi yoki ijtimoiy guruhlar ongiga, turmush tarziga ta’sir o‘tkazish, ularni bo‘ysundirish uchun yo‘naltirilgan maqsadlarni shakllantiradi.

Globallashuv jarayonining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri “...hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani”⁹ dir. Mana shunday

vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma‘naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishidagi ta‘siriga bardosh berishi amrimahol.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganidek: “Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o‘ta shiddat bilan o‘zgarayotgani va turli tahdidlar ko‘pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo‘lmaydigan g‘oyat murakkab vazifalarni qo‘ymoqda”.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni bolaligidan tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratilmagani, uning qiziqishlari o‘rganilmagani, ma‘rifatga ko‘proq yo‘naltirilmaganidan Mafkuraviy immunitetning susayishi yuzaga chiqmoqda. Ularning mafkuraviy immuniteti haqida o‘z vaqtida to‘g‘ri ishlanmaganidan yot g‘oya ta‘siriga tushayotir. Mafkuraviy immuniteti mustahkam yoshni hech bir yot g‘oyachi yo‘ldan og‘dira olmaydi. Dunyo xaritasidagi davlatlar, millatlar tarixiy shart-sharoit, jo‘g‘rofiy joylashuvi, geostrategik holatiga ko‘ra turli mavqega ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llabquvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni. 5 iyul 2017 y.// <http://www.pressservice.uz/uz/lists/view/748>.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2021.
3. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2018 y. 28 dekabr. T.:O‘zbekiston, 2019.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T: O‘zbekiston, 2017.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud ahloq.- T.: «O‘zbekiston», 1992 yil, 15-16 b.
7. Abbosxo‘jaev. O., Umarova N., Qo‘chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – T.: Akademiya, 2007. –B. 4, 91.
8. Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 91, 195.
9. Saidov, S. (2021). Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san‘atiga qo‘shgan hissi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 334-337.
10. Saidov, S. (2022). Tarixiy manbalarda keltirilgan ibn almuqaffa borasidagi ma‘lumotlar tahlili. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 525-528.
11. Jurayev, S. S. U. (2021). Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
12. Jurayev, S. S. O. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 395-401.

Internet ma‘lumotlari:

1. Google.uz
2. Wikipedia.uz
3. Lex.uz